

Halq manfaatini himoya qilish eng katta va masuliyatli vafifadir bo`yicha viloyat hokimi Sh.Q.Abdurahmonovning ma`ruzasi

Xurmatli yigilish katnashchilari !

HALQ MANFAATINI HIMOYA QILISH ENG KATTA VA MAS'ULIYATLI VAZIFAMIZDIR

Viloyat hokimi, Oliy Majlis Senatining a'zosi Shuhratbek Abdurahmonovning viloyat teleradiokompaniyasi orqali viloyat aholisi bilan telemuloqati uchun tezislar

Assalomu alaykum hurmatli hamyurtlar! Sizlar bilan teleekran orqali uchrashib turganimdan hursandman. Bugungi uchrashuvimiz vaqt o`ta tig`iz va tezbob o`tayotgan bir davrga to`g`ri kelmoqdaki, shu uchrashuvimiz ta'sirida viloyatimizda barcha sohalardagi rivojlanishlar yanada yuqori sur'atlar bilan kechadi, degan umiddaman.

Davlatimiz rahbarining ko`rsatmalariga tayanib viloyatimiz aholisining tinch va hotirjam yashashi, ertangi kunga ishonchini oshirish, farovon turmush kechirishi va farzandlari davrasida har bir kuni bayram bo`lib o`tishi uchun qat'iy belgilangan dasturlar asosida kecha-kunduz tinmay mehnat qilishimiz kerak bo`lyapti.

Men boshchiligimda viloyatimizdagi kattayu kichik rahbar kadrlar mehnat va ijro-intizomiga rioya etib, topshirilgan vazifaga nisbatan mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his qilib ish tutish zarurligini asosiy mezon deb bilsak, maqsadga erishamiz.

Mas'uliyatli, ishchan, tashabbuskor kadrlarni qo`llab-quvvatlash orqali aholining turmush farovonligini oshirish mumkin. Shu yo`sinda o`tgan yili astoydil mehnat qilib, muayyan yutuqlarga erishdik.

Viloyatimizda yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejalari ortig`i bilan uddalandi. 2013-2015 yillarga mo`ljallangan sanoat salohiyatini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan Dasturga asosan texnik va texnologik yangilash ishlari izchil amalga oshirilishi natijasida sanoatimiz tarkibida yuqori qo`shimcha qiymatga ega bo`lgan, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining salmog`i ortdi. Sanoatning ulushi yalpi hududiy mahsulotning yaqin 23 foizini tashkil etdi. Halq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 6 milliard so`mdan ortdi va avvalgi yilga nisbatan 122 foizga teng bo`ldi. 24 mingdan ortiq yangi ish o`rinlari yaratildi.

Viloyatimizda 80 ta xorijiy sarmoyali korxonalar ro`yxatdan o`tgan bo`lib, hozir 73 tasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar viloyatdagi sanoat ulushining 79 foizini tashkil etdi. O`tgan yili 720 million AQSh dollari hajmida eksport amalga oshirildi. Bu yil umumiy qiymati 358 milliard so`mlik investitsiyalar kiritilishi hisobiga 3717 ta loyiha amalga oshiriladi. Bu 34 mingdan ortiq yangi ish o`rinlarini yaratish, demakdir.

Albatta, tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishimizda muhim omil vazifasini bajaryaptilar. Viloyatimizda kichik biznes sub'ektlari tomonidan o`tgan yili ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish hajmi keskin ko`paydi.

Kichik biznes sub'ektlarining viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi 58 foizni tashkil etdi, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 125 foizga ortdi. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o`tgan yili 67 mingta yangi ish o`rinlari yaratildi. Ularning 87 foizi qishloq joylarga to`g`ri kelgani quvonarlidir!

Hozir viloyatimizda 6590 ta fermer xo`jaligi faoliyat ko`rsatyapti. Ularning 2545 tasi paxta va g`alla yo`nalishidadir. Har bir xo`jalik o`ziga yarasha er maydonlariga ega. Bu katta kuch. Muhtaram Yurtboshimizning bugungi kun fermieri faqat mahsulot etishtiruvchi emas, balki uni qayta ishlab, yangi daromad manbalariga ega bo`la oladigan, etuk siyosatchi, zamonaviy ishboshi bo`lishi darkorligiga alohida e'tibor qaratganliklarini, aynan shu masala viloyatimizga tashriflari chog`ida o`rtaga qo`yilganligining o`zi zimmamizdagi mas'uliyat va javobgarlikni oshiradi.

O`tgan yili qator fermer xo`jaliklarida qayta ishlash korxonalari va sexlari tashkil etilib, ular ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklariga aylandi. 1047 ta fermer xo`jaligida 1098 ta loyiha ro`yobga chiqarildi. Natijada 3593 ta yangi ish o`rinlari yaratildi.

Joriy yilda 519 gektar erda intensiv bog`lar, 176 gektar maydonda intensiv tokzorlar tashkil etiladi. Shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarimiz, omilkor fermerlarimiz viloyatda intensiv bog` va tokzorlarning ko`payishi evaziga etishtirilayotgan meva hamda uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, eksport qilish orqali daromadlarini ko`paytirish imkoniyatlarini yuzaga kelganligini chuqur anglab olishlari kerak.

2013 yilda, viloyatimizning 46 ta massivida namunaviy loyihalar asosida 900 ta turarjoy binolari qurildi. Bu massivlarga ichimlik suvi, elektr quvvati, tabiiy gaz tarmoqlari tortilib, ichki yo'llar chiqarildi. Bu yil 31 ta massivda 977 ta ana shunday namunaviy uylar barpo etiladi.

2013 yilda viloyatimizda qurilish materiallari ishlab chiqaradigan 146 ta korxonalar tashkil etilgan.

2013 yilda bolalar sporti ob'ektlari, musiqa va san'at maktablari barpo etish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari izchil davom ettirildi. Bu yil 14 milliard so'mdan ziyod qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilib, 11 ta inshoot foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari "Sog'lom bola yili" davlat dasturi asosida viloyatimizda bunyod etilayotgan "Vodiy faol yoshlari" oromgohi "Respublika yoshlar markazi"ga aylantirildi va bu yil qurib bitkazilishi uchun 8 milliard 667 million so'm mablag' ajratilyapti.

O'tgan yili qilingan ishlar va navbatdagi rejaları haqidagi so'zimizni Muhtaram Yurtboshimizning mana bu so'zlari bilan yakunlayman: «Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz darkor. Bunday zamonda, bunday sharoitda erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lmasdan, havolanishga berilmasdan, tez o'zgarib borayotgan dunyo bilan hamqadam bo'lib yashash, vujudga kelgan vaziyatni hushyor aql-idrok bilan baholash, yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olishga qodir bo'lgan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin». Demak, yurtimizda tinchlik-osoyshtalikning qadriga etib, uning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shishdek oliyanob niyat bilan yashashimiz kerak.

Hurmatli hamyurtlar. Teleekran orqali Sizlarga viloyatimizda o'tgan yili qilingan ishlar, bir qator vazifalar haqida hisobot tariqasida aytdim. Endi asosiy maqsadga o'tsak, bugungi tinch, osuda hayotimizga shukrona keltirib, ertangi kunimizni yanada porloq qilish uchun Siz bilan ochiq muloqot orqali gaplashib olishimizni zarur deb hisobladim. Bugungi uchrashuvga viloyat hokimining o'rinbosarlari, viloyat tashkilotlari rahbarlari, Andijon shahar hokimi taklif etilgan.

Azizlar ! Rivojlanishning bosh omili tadbirkorlikdir.

Tadbirkorlarga o'z ishini yurgizishi uchun o'tgan yili 451 milliard so'm kreditlar berildi, bu yil ularga yana o'shancha, kerak bo'lsa undan ham ko'proq kredit berishni ko'zda tutganmiz. Bugungi uchrashuvda barcha banklar rahbarlari qatnashyapti. Tadbirkorlarga, kichik biznes bilan shug'ullanuvchilarga, yangi ish boshlaydigan kollejni bitiruvchi yoshlarimizga qanaqa imtiyozli kreditlar bor? Ularni qanday olish mumkin? Marhamat bank rahbarlari, javob bering! (Bankirlardan keyin) Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun birinchi navbatda elektr, gaz, suv, yo'l, aloqa va boshqa infratuzilmalar kerak.

Qolaversa, elektr energiyasini jadval bilan to'g'ri beryapmiz, degan elektr rahbarlari mana endi televidenie orqali gapiring. Menga qaerdadir uzliksiz yonyapti, boshqa joylarda 20 soatlab elektr o'chirilgan, degan gaplar kelyapti.

Marhamat, avvalo elektr quvvatingiz qanday? Tadbirkorlarga, aholiga, ijtimoiy ob'ektlarga qanday xizmat ko'rsatasiz, ertadan ishingizda qanday o'zgarishlar bo'ladi? Gapiring! (Elektr tarmoqlari idorasi rahbarining javobi) Gazning rahbarlariga ham shu savollar. Marhamat, javob bering! (Gaz rahbarining javobi)

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida turibdi. Shu masalada 2014 yil uchun hukumatimiz tomonidan yangi ko'chalarga suv quvur yotqizish, aholi va tadbirkorlarga toza ichimlik suvi etkazib berish uchun qo'shimcha mablag' ajratilyapti. Buni yana davom ettirishga xohlaganingcha pul beraman deyapti.

Viloyat "Suvoqava" tashkilotidan qatnashayotganlar, ayting. Quvvat va imkoniyatimiz qancha? Keyingi rejalar qanaqa? (Viloyat "Suvoqava" tashkiloti rahbari so'zi)

Mana hozirdan boshlab ichki yo'llarni tekislash, asfaltlash, ta'mirlash boshlandi. Shokirjon Qodirovich, teletomoshabinlarga o'zingiz aytingchi, bu yil xalqaro, respublika, viloyat darajasidagi va umum foydalanishdagi yo'llardan viloyatimizda qanchasi asfaltlanadi, ta'mirlanadi? Ularga hukumatimiz qancha mablag' ajratyapti? Qaysi yo'l qachon ishga tushadi? "Avtoyo'l" viloyat tashkiloti rahbari bilan savollarga javob bering.

Tadbirkorlarga murojat qilaman. Har juma, shahar, tuman hokimliklarida tadbirkorlar kuni. Shu erda ishi bitmayotgan tadbirkor hech ikkilanmay viloyat hokimligi ishonch telefoniga chiqsin. Quyi hokimlikda ish yurishmayaptimi? Bankdan kredit olishdagi, elektr ta'minotidagi, gaz, suv va boshqa sohalardagi muammolar bormi? Shaxsan o'zim nazorat qilaman, ijrosini o'rinbosarlarim, viloyat tashkilotlari rahbarlari ta'minlaydi.

Yurt tinchligi – oliy ne'mat. Uning qadriga etmaslik, atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisaga befarqlik, loqaydlikdan yomon narsa yo'q. Andijonda yashayotgan har bir inson avvalo tinchligimiz, viloyatimiz tozaligi, ko'cha, ishxona, uy va jamoat joylarida tartib, ijro-intizomi joriy etilishiga daxldordir. Yurtimiz go'zalligi uchun ekilgan gullarni kimdir tepalab, yulib, hayvonga egizib, daraxtlarni sindirsa, atrofni ifloslantirsa, ko'rib indamasak, unda biz kim bo'ldik?

Bozorlarda tartib bo`lishi, narx-navo barqarorligi, naqd pul to`lovlarini kassa apparati orqali amalga oshirish xalqimizning kayfiyatini belgilayli.

Har oyda keksalarga yaqin 73 milliard so`m pensiya, bolalar uchun 9 milliard so`mdan ortiq nafaqa, ishlayotganlarga 60 milliard so`mdan ortiq ish haqi berishimiz kerak. Agar har birimiz har oyda o`zimiz harid qilgan tovarlar uchun chek olsak, naqd pul to`lovlarini o`z vaqtida amalga oshiramiz.

Shu masalada viloyat soliq, bank va bozorlar tizimidagi ishlar ahvoli, navbatdagi vazifalar haqida viloyat soliq boshqarmasi, Markaziy Bank viloyat bo`limi, bozorlar uyushmasi rahbarlari hisobot bersin. Bozorlarga kirmay ko`chada savdo qilayotganlar, ro`yxatdan o`tmagan do`ppido`z, kashtado`z va boshqa hunarmandlarni kim nazorat qiladi? Amaldagi tartibda faoliyat ko`rsatishni soliq va bozor hodimlari qachon o`rniga qo`yadi? (soliq va bozorlar uyushmasi rahbarlari hisoboti) Aholiga etarli sharoit yaratish, ko`pqavatli uylardagi holatni yaxshilash bo`yicha qilingan ishlarmizni yana davom etdiramiz.

Har bir shahar, tumanda infratuzilma vakillaridan iborat 10 kishilik guruhlar mahallalarga borib, aholi bilan suhbatlashib, muammolarni joyida hal qilishi, echilmagan masalani menga olib kelishi, aholining orzu istaklarini etkazishi kerak.

Yana ta'kidlaymanki, men boshliq viloyatda rahbarman deb yurgan har bir mas'ul xalq manfaatini himoya qilishni o`zining bosh vazifasi deb bilishi kerak. Bunday uchrashuvlar har oyda kamida bir marta o`tkazilishi, har safar uchrashuvda aniqlangan kamchiliklar keyingi safargacha bartaraf etilishi va teletomoshabinlarga ma'lum qilinishi zarur.

E'tiboringiz uchun rahmat.